IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
SPECIAL ISSUE

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR O‘SISHINI TAMINLOVCHI OMILLAR

Mamatkulov Avazbek Axmadaliyevich

“Osiyo” xalqaro universiteti 2-kurs magistri

Annotasiya

Milliy iqtisodiyotda ro’y berayotgan jarayonlarni baxolashda, albatta, makroiqtisodiy tomondan yondashiladi. Demakki, butun mamlakat miqyosida ro’y berayotgan o’zgarishlar kuzatiladi va taxlil qilinadi. Bozor iqtisodiyotiga o’tish sharoitida oldimizda turgan eng muxim vazifalardan biri iqtisodiyotda jami ishlab chiqarish natijalarini xisoblab borishdir. Buning uchun milliy xisob kitoblar tuzish borasida kerak bo'ladigan ba’zi muammolarni xal qilish lozim. Bir butun iqtisodiyot uchun xam ijtimoiy xisob kitoblarning zaruriyati ana shunga misol bo’la oladi. Milliy iqtisodiyot jarayonlarini baxolashga makroiqtisodiy yondashuv, uni barqarorlashtirish, milliy valyutamizni mustaxkamlash, kapital qurish dasturi, iqtisodiyotning tarkibiy jixatdan yangilanish yo’lini davom ettirish rejasini yangilash, qonunchilik yoki xususiy tartibni mustaxkamlashdan iboratdir.

Kalit so’zalar

Bozor iqtisodiyoti, makroiqtisodiy barqarorlik, Agrosanoat majmuisi, qishloq xo‘jaligi.

Iqtisodiy isloxotlarning asosiy maqsadi barqaror iqtisodiy o’sishga erishishdir. Bu maqsadga erishmay turib, axoli turmush darajasini oshirish, ijtimoiy muammolarni yechish, mamlakatning jaxon hamjamiyatidagi iqtisodiy va siyosiy mavqeini mustahkamlash mumkin emas Bozor iqtisodiyotiga o’tayotgan barcha mamlakatlar qatorida O’zbekiston xam barqaror iqtisodiy o’sishga erishishni iqtisodiy isloxotlarning asosiy maqsadi qilib belgilab oldi.

Iqtisodiyotimizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, inflyatsiya darajasini sezilarli ravishda pasaytirish xamda qat’i moliya va kredit siyosatini o’tkazish biz uchun g‘oyat muxim axamiyatga ega. Umuman olganda, makroiqtisodiy barqarorlikning o‘sishi mexnatga yaroqli axolining ish bilan yuqori darajada bandligi, to‘lov balansining qoniqarli axvolda ekanligi va milliy valyutaning tashqi bozorlardagi barqarorligi singari ko‘rsatkichlarda aks etadi. Bu ko‘rsatkichlarni barqarorlashtirishga vazmin monetar-fiskal siyosat, narx va ish xaqi hamda tashqi iqtisodiy siyosat yuritish bilan erishish mumkin.

Iqtisodiy islohotlar mulkiy masalalar to‘g‘ri xal etilib, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlari uzluksiz amalga oshirilgan, ko‘p ukladli iqtisodiyot barpo etilgan taqdirdagina salmoqli natijalar beradi. Tarkibiy siyosat, eng avvalo, qishloq xo‘jaligi xomashyosi va mineral resurslarni chuqur qayta ishlashga, texnologik siklning tugallanganlik darajasini oshirishga, mamlakat yoqilg‘i-energetika va oziq-ovqat mustaqilligini ta’minlashga qaratildi.

Tarmoqlar ichida asosiy bo‘g‘in bo‘lib ishlab chikarish majmuisi hisoblanadi. Sanoat majmuisining muxim xususiyati shundaki, uning barcha tarmoqlarida mexnat vositalari va iste’mol tovarlari yaratiladi, ilmiy-texnika taraqqiyoti xamda milliy daromadning katta qismi ishlab chiqariladi va yaratiladi. Ayni paytda O‘zbekistondagi mexnatga yaroqli axolining asosiy qismi xam sanoat ishlab chiqarishida band.

Sanoat ishlab chiqarishi jamiyatning ob'ektiv iqtisodiy qonunlari xamda respublikamizda so'nggi yillarda qabul qilingan qonun va qarorlar asosida rivojlanmoqda. O'zbekiston sanoati ayni vaqtda o'z tarmoqlari va boshqa ijtimoiy tarmoqlar uchun moddiy-texnik vositalar xamda xalq extiyojiga kerak bo'ladigan maxsulotlarni xam uzluksiz tayyorlab bermoqda. Shu boisdan xam sanoat ishlab chiqarishi darajasi va samaradorligining o'sishini ta'minlash lozim. Chunki sanoat ishlab chiqarish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, respublikamizning iqtisodiy poydevori shuncha mustaxkam axolining turmush sharoiti xam yaxshi bo'ladi. Sanoat o'z ichiga bir qancha funksional majmuilarni - yoqilg'i sanoati va energetikasi, metallurgiya, yengil sanoat, kimyo, mashinasozlik, oziq-ovqat, qurilish materiallari, yogochni qayta ishlash sanoatlarini oladi. Sanoat majmuisini xarakterlovchi ko'rsatkichlar tarkibiga sanoat yalpi maxsuloti, balans foyda, sof foyda, ishlab chiqarish rentabelligi, maxsulot rentabelligi, mexnat unumdorligi, fond qaytimi va fond sig'imi kabilar kiradi.

Agrosanoat majmuisi ko'p tarmoqli yirik majmui bo'lib, o'z tarkibiga qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtiruvchi va qayta ishlovchi tarmoqlarni oladi. Agrosanoat majmuisining taraqqiyoti nafaqat oziq - ovqat ta'minotini yaxshilashda, balki muxim xomashyo sifatida mamlakat industriyasining taraqqiyoti uchun xam asosiy omildir.

ACM murakkab ishlab chiqarish — iqtisodiy tizim bo'lib, tarkibiga quyidagilarni oladi:

- qishloq xo'jaligi va unga aloqador tarmoqlar uchun ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan, shuningdek, qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish-texnika xizmati ko'rsatadigan sanoat tarmoqlari.

– qishloq xo'jaligining o'zi;

- qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetkazib berish bilan band bo'lgan tarmoqlar. Rivojlangan xorij davlatlari xalq xo'jaligida lizing xizmatining aloxida o'rni bor. O'tgan asrnig 40-50—yillaridan boshlab Amerikada ilk bor joriy etilgan bu xizmat turi ayni paytda jaxonnng ko'plab mamlakatlarida keng qullanilmoqda. Respublikamiz iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar mazkur xizmat turini joriy etishni taqozo qiladi.

Investitsiyalarning ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash, ilmiy asoslangan investitsiya qarorlarini qabul qilish, investitsiya faoliyatini oqilona tartibga solish asosida ichki va tashqi moliyaviy manbalarni, barcha shart-sharoitlarni xisobga olgan xolda jalb qilish milliy iqtisodiyotning kelajagini belgilaydi. Moliyaviy moxiyatiga ko'ra, investitsiyalar daromad olish uchun xo'jalik faoliyatiga sarf qilingan xamma turdagi aktivlardir. Iqtisodiy moxiyatiga ko'ra, investitsiyalar kapitalni yaratish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish uchun ketadigan xarajatlar va shunga bog'liq ravishda aylanma kapitalning o'zgarishidir. O'zbekistonga chet el sarmoyalari oqimi kengayishi munosabati bilan, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifasi ommaviy va xususiy manfaatlar, xorijiy mamlakatlar, kompaniyalar, muayyan investorlar manfaatlarining samarali nisbatini belgilash xisoblanadi. Investitsiyalarni moliyalash manbalaridagi xususiyat davlat budjeti mablag'i solishtirma salmog'ining yuqoriligi, korxonalar mablag'i va xususiy mablag' solishtirma salmog'ining pastligi xisoblanadi. Ularning solishtirma salmog'i keyingi yillarda deyarli ikki marta kamaydi va chet el kreditlari solishtirma salmog'i bir necha marta oshdi, ammo bevosita chet el investitsiyalarining ulushi pasaydi.

Xizmatlar soxasi ishlab chiqarish emmentlarining xarakatiga ko‘mak berib kelgan bo‘lsa, iqtisodiyotning o‘sishi va murakkablashuvi ilmiy-texnika taraqqiyoti jadallashuvi bilan bu soxa juda zarur, xattoki, istiqbolda iqtisodiyotning asosiy omiliga aylanadi. Kapital sig‘imi yuqori bo‘lmagan va uncha murakkab bo‘lmagan texnologiyalarni talab etuvchi xizmat soxasi tarmoqlarining nisbatan yuqoriroq sur’atlarda rivojlanishi natijasida pullik xizmatlar soxasida tarkibiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Pullik xizmatlar soxasini islox; kilish va yanada rivojlantirish mamlakatimizda utkazilayotgan islohotlarning va yechilayotgan strategik vazifalarning ajralmas qismidir.

Demak milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishning ahamiyati shundan iboratki iqtisodiyotning asosiy funksional ahamiyatini yanada kuchaytirish orqali mamlakat barcha aholisining doimiy ravishda o‘sib boruvchi ijtimoiy – iqtisodiy extiyojlarini oqilona va maqsadga muvofiq, to‘larok qondirib borishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдусаматов, Д. А., & Рахимов, Н. Р. (2021). Технологические Особенности Изготовления Афн-Пленок И Приборных Структур На Их Основе.
2. Рахимов, Н. Р., & Абдусаматов, Д. А. (2021). Определение Природы Возникновения Аномального Фотонапряжения И Разработка Оптрона На Их Основе.
3. Абдусаматов, Д. А. (2022). Классификация Приемников Оптического Излучения Для Разработки Оптоэлектронных Информационно-Измерительных Систем. *Gospodarka i Innowacje.*, *24*, 986-988.
4. Kuldashov, O. H., Komilov, A. O., & Abdusamatov, D. A. (2022). COMPUTER MODEL OF IONIZER. *International Journal of Advance Scientific Research*, *2*(12), 133-139.
5. Abdusamatov, A. X. (2023). Обнаружение Повреждений В Электрически Обесточенных Линиях Электропередачи. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, *1*(6), 62-69.
6. Abdusamatov, A. X. (2023). Mathematical model of the throughput of an ip network switching node with a non-constant amount of space in the router RAM. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, *10*(10), 186-193.
7. Abdusamatov, A. X., & Tajibaev, B. I. (2023). Test results of combined solar panel installation. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, *10*(10), 94-98.
8. Abdusamatov, X. (2023, October). Control of manifestation of dislocations under the influence of external factors. In *Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions"*.
9. Abdusamatov, A. X. (2023). RADIATION-STIMULATED ANNEALING BY GAMMA QUANTUM OF LEDS BASED ON AlGaAs HETEROSTRUCTURES SUBJECT TO OPERATIONAL FACTORS. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, *2*(12), 269-275.